

BIZ O‘ZBEKISTON FUQAROLARIMIZ



Bizning mamlakatimiz – purviqor tog‘lar va vodiylar, sersuv daryolar va ko‘llar, shu bilan birga, go‘zal shaharlar, so‘lim qishloqlar hamda mahallalar o‘lkasi. O‘zbekiston – boy madaniyat va ko‘p asrlik an‘analar yurti. U nafaqat tarixiy, balki aniq maqsadlar va dadil qadamlar bilan kelajakka intilgan zamonaviy mamlakatdir. Atrofimizdagi barcha odamlar – zamondoshlarimiz, qo‘ni-qo‘shnilarimiz, tanishlarimiz, do‘stlarimiz, oilamiz hamda qarindosh-urug‘larimiz O‘zbekiston fuqarolaridir.





1992-yilda O‘zbekiston Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga qo‘shildi. Unda butun dunyo bolalarining tug‘ilganidan to voyaga yetgunga qadar bo‘lgan huquqlari bayon etilgan. Bu huquqlar bolalarning hayoti va salomatligi, barcha bolalar baxtiyor ulg‘ayishi va har tomonlama rivojlanishi uchun juda muhimdir.

**Oilada ota-onasi
bilan yashash**

Shaxsiy daxlsizlik

Bolalarning huquqlari

Ta‘lim olish

Yashash

Dam olish

**Tibbiy xizmatdan
foydalanish**



**So‘z va vijdon
erkinligi**

Shaxsiy fikrga ega bo‘lish

Bolalarning Konvensiyada yozilgan huquqlari sizning shaxsiy huquqlaringiz hisoblanadi. Siz ulg‘ayganingiz sari huquqlaringiz, majburiyatlaringiz va imkoniyatlaringiz tobora ko‘payib boradi. Siz jamiyatda odamlar qanday yashashini va davlat qanday tashkil etilganini yaxshiroq tushuna boshlaysiz. Yoshingiz ulg‘ayishi bilan qonun tomonidan belgilanadigan yangi huquq va majburiyatlarga ega bo‘lasiz. Katta bo‘lganingizda esa saylovlarda qatnashishingiz, o‘z mamlakatingiz hayotida ishtirok etishingiz hamda o‘zingizga va boshqa odamlarga daxldor bo‘lgan qarorlarga ta‘sir ko‘rsatishingiz mumkin bo‘ladi.



1. Siz qanday huquqlarga egasiz?
2. Siz qaysi huquqlardan foydalanyapsiz?



Mavzuni so‘zlab berishga tayyorlaning.

